“TALABA YOSHLAR INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI”

D.E.Mavlanov[1]

1. Sarbon Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi v.b. dotsenti

Mas'ul muallif: Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li, Sarbon Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi v.b. dotsenti.

e-mail: donyor_2102@mail.ru

Received: 10 Noyabr 2026
Accepted: 15 Noyabr 2026
Published: 20 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Mavlanov, D. E. “TALABA YOSHLAR INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI” / D. E. Mavlanov // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 34–36.

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba yoshlarning intellektual rivojlanishi bilan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va internetga tobelik o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Internetga tobelikning ijtimoiy-psixologik jihatlariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talaba yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, intellektual rivojlanish, internetga tobelik, intellekt tiplari, lingvistik intellekt, vizual-fazoviy intellekt, kinestetik intellekt, vaqtni boshqarish.

«ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ»

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь интеллектуального развития студенческой молодёжи с использованием социальных сетей и интернет-зависимостью. Проанализирована научная литература, посвящённая социально-психологическим аспектам интернет-зависимости.

Ключевые слова: студенческая молодёжь, социальные сети, интеллектуальное развитие, интернет-зависимость, типы интеллекта, лингвистический интеллект, визуально-пространственный интеллект, телесно-кинестетический интеллект, управление временем.

“THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF STUDENT YOUTH”

Abstract. This article examines the relationship of university students’ intellectual development to social media use and Internet addiction. The scientific literature on the social and psychological aspects of Internet addiction is reviewed.

Keywords: university students, social media, intellectual development, Internet addiction, types of intelligence, linguistic intelligence, visual-spatial intelligence, bodily-kinesthetic intelligence, time management.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlarining ko‘pgina qismi asosiy vaqtlarini turli ijtimoiy tarmoqlarga sarflashlari, ularda internet tarmoqlariga bo‘lgan tobelikni keltirib chiqarmoqda. Tan olib gapirish kerakki, hozirgi zamon axborot texnalogiyalari davrida ijtimoiy tarmoqlardan ko‘p foydalanish talaba yoshlarning intellektual rivojlanishiga faqatgina ijobiy emas, salbiy ta’sir ham o‘tkazmoqda. Talaba yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan internetda mavjud salbiy ma’lumotlarga zo‘ravonlikni, axloqsizlikni, behayolikni, shafqatsizlikni targ‘ib e’tuvchi ma’lumotlarni hamda o‘zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlariga zarar yetkazishga olib keladigan axborotlar, tanishuv saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloklar, chatlar kabi resurslarni o‘z ichiga olgan xavf-xatarlar kiradi. Bu xavf-xatarlar esa talaba yoshlarni quyidagi ijtimoiy-psixologik og‘ishlarga olib keladi:

- yoshlarda real muloqot ko‘nikmalarini yo‘qolishiga;
- insonlararo munosabatlar rivojlanishini susayishiga;
- internetga tobeligi tufayli yoshlarning ota-onalari o‘rtasidagi ziddiyatlarning vujudga kelishiga;
- o‘qishdagi o‘zlashtirishning pasayishiga hamda o‘z tengdoshlari va ustozlari bilan ziddiyatga borishiga;
- o‘z o‘zini qabul qilishini susayishiga;
- uyqu soatining kamayishiga va stressga tushishga;

Ushbu o‘rinda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning quyidagi so‘zlarini keltirish mumkin: “Afsuski, ba’zi yoshlarimizda Internetdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikma va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigitqizlar internetni axborot, bilim va ma’rifat manbai deb emas, balki shunchaki ko‘ngilochar vosita deb bilishadi. Mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada avvalo Vatan manfaatini o‘ylab ish tutishi zarur. Shu o‘rinda, men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimizni, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman”

Adabiyotlar tahlili va metodlar. K.Yang, A.Goldberg, D.Grinfild, M.Orzak8 (AQShda), Ch.Chu (Osiyoda), O.Egger, M.Rautergberglar birinchilardan bo‘lib internet-tobelikni tadqiq

qila boshlaganlar, ular asosan internetga tobelikni diagnostika qilish mezonlarini va uni davolash uchun tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Ularning ayrimlarini tashabbusi bilan internet-tobelar uchun alohida sayt yaratilib, virtual klinika joriy qilingan.

Rus olimlari orasida A.Ye.Voyskunskiyning ishlari alohida o‘ringa ega bo‘lib, u birinchilardan bo‘lib shaxsning Internetdagi faoliyati va ularning turli tarmoqlarga ta’sirini o‘rgangan. U tobelik fenomenni ommaning psixologik konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif etgan. Bu yondashuvni O.Ye.Smislova (xakkerlarning omma tajribasini xis etishidagi o‘ziga xoslik), O.D.Babayeva (axborotlashganlikning psixologik oqibatlari)lar ham o‘z ishlarida qo‘llab-quvvatlaganlar. Ularning tadqiqotida markaziy o‘rinni Internetdan foydalanishning shaxsni turli sohalariga (o‘yin, bilish jarayonlari, kommunikativ) ta’sirini o‘rganish egallaydi [3].

Internet va boshqa ko‘p turdagi tarmoq xizmatlari real dunyo muammolari va qiyinchiliklari mavjud bo‘lmagan qandaydir virtual olamga kirish va yangi psixologik tajribani egallash uchun o‘ziga xos ijodiy laboratoriya sifatida qo‘llanilishi mumkinligi, faoliyat maqsad va sharoitlari hamda motivatsiyaga bog‘liqligi O.B. Simatova, A.Ye. Vayskunskaya, P. Mutyan ishlarida ko‘rsatib berilgan.

I.Yu. Tarasova ishlarada talabalarda olib borilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra dastlabki xulosalarni taklif qilgan. Shunday qilib, so‘rov natijalarini sarhisob qilsak, diagnostik tadqiqotning asosiy gipotezasi ya’ni bugungi kunda internetga mukkasidan ketish ko‘p uchrayotgani tasdiqlanishini aytishimiz mumkinki, zamonaviy yoshlarning, oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘rtasidagi muloqot asosan internetda uchraydi va bu ularning ijtimoiylashuvining muhim omili va sharti deb hisoblanmoqda [6].

Anastasiya Yevgenievna Jichkina internetdan foydalanishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rgangan rus psixologlaridan biri. Internet tadqiqotchilari - kommunikatsiya odatda ınternetdagi aloqa usullarini o‘zlarining interaktivlik darajasi bo‘yicha ajratadi. Eng interaktiv muloqot media chatlar va mudul bo‘ladi, hech bo‘lmasa interaktiv email va axborot guruhlar. Garchi tematik suhbatlar mavjud bo‘lsa-da, masalan, taniqli odam IRC kanaliga yoki veb-chatga tushirilganda va u qiziquvchilarning barcha savollariga javob beradi Ushbu barcha aloqa shakllari, kompyuter vositachiligiga ko‘ra, noma’lumlik kabi xususiyatlarga ega, bu esa bir qator oqibatlarga olib keladi [7].

Birinchidan, og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalari internetdagi aloqada o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Matnli muloqotda “hissiyotlar’ yordamida o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramay, aloqa vaktida aloqa ishtirokchilarining jismoniy yo‘qligi hissiyotlarni nafaqat ifoda etish, balki yashirin bo‘lishiga olib keladi, shuningdek , hozirgi paytda odam boshdan kechirmayotgan his-tuyg‘ularni ifoda etish mumkin.

Shuning uchun, “Internetda jiddiy suhbat qurish osonroq”; “Internetda odamlar kamroq xafa bo‘lishadi, chunki bu befoyda - siz qanchalik xafa bo‘lganingizni hali ham ko‘ra olmaysiz”; “Internetda siz yoqimsiz (tashqi tomondan) odamlar bilan muloqot qilishingiz mumkin va ularning xunukligi muloqotga xalaqit bermaydi”, “Internetda siz o‘zingizdan ancha kattaroq odam bilan teng sharoitlarda gaplashishingiz mumkin va bu muloqotga xalaqit bermaydi, hatto uning yoshi kattaroqligini bilsangiz ham.

O‘zbekistonda internet-tobelik fenomeni oxirgi o‘n yillikdagina tadqiqot predmetiga aylandi. Mazkur yo‘nalishda o‘zbek olimlari tomonidan kam sonli tadqiqotlar olib borilgan.

L.A. Nigmatulinaning tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, kompyuterga tobe o‘smirlarning hissiy va kommunikativ xususiyatlarining buzilishiga olib kelishini aniqlanganligi; kompyuterga tobelikning ta’sirini eksperimental o‘rganish jarayoni o‘smir va katta o‘smirlarga psixologik yordam ko‘rsatishning korreksion shaklini amalga oshirishni tashkil qilinganligi; o‘quvchilarning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiluvchi psixologik trening dasturlarini xalq ta’limi muassasalari faoliyatiga tatbiq qilinganligi bilan izohlanadi [8].

N.M. Dalimovaning “O‘smirlar o‘rtasida kompyuter narkomaniyasining psixoprofilaktikasi va psixokorreksiya’ning xususiyatlari” doktorlik dissertatsion ishida o‘zbek milliy muhitida o‘smirlarning kompyuter o‘yinlariga tobeligini diagnostika qilish va korreksiya qilish masalasi yoritilgan bo‘lib, unda kompyuter o‘yinlariga tobeligi mavjud o‘smirlarda bezovtalik va agressiya’ning oshishi aniqlangan [3].

Yana bir respublikamiz tadqiqotchisi J.A. Hamidov ham inson va kompyuter munosabatlarining nazariy masalalari tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishida kompyuter vositasida o‘qitishning afzalliklari mustaqil ta’lim jarayonida kompyuter orqali axborot olishning ahamiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida masofaviy o‘qitishning zamonga hamohangligi, ularsiz yangi pedagogik texnologiyalarni tasavvur etib bo‘lmasligi, aynan ular pedagogik texnologiyalar qo‘llanishi samaradorligini oshirishga yordam berishi xususida mulohaza yuritadi [9].

K. Yangning “Internetga tobelik” testi modefikatsiya qilingan varianti hamda H. Gardner “Intellekt tiplari” anketasidan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Biz tadqiqotimizni O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 50 nafar talabalari orasida o‘tkazdik va quyidagi natijalarga ega bo‘ldik.

K.Yangning “Internetga tobelik” testining modefikatsiya qilingan varianti foiz ko‘rsatgichlari

Daraja	Sinaluvchilar soni	Ulushi (%)
Past	12	24 %
O‘rta	26	52 %
Yuqori	12	24 %

O‘rtacha ball: 72.4 ± 11.3 (o‘rtacha tobelik chegarasida).

K.Yangning “Internetga tobelik” testi modefikatsiya qilingan varianti hamda H.Gardnerning “Intellekt tiplari” so‘rovnomasi orqali internetga tobelik darajasi past va yuqori bo‘lgan talabalarda intellekt tiplari ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili.

Intellekt tiplari	Past tobelik (M±SD)	Yuqori tobelik (M±SD)	t	p
Lingvistik	15.4 ± 2.9	13.2 ± 3.1	2.45	0.019*
Matematik-mantiqiy	14.2 ± 2.7	13.5 ± 2.8	0.93	0.357
Vizual-fazoviy	16.0 ± 2.6	14.0 ± 2.7	2.68	0.011*
Musiqiy	11.0 ± 3.2	10.5 ± 3.5	0.49	0.625
Shaxslararo	12.9 ± 3.0	12.2 ± 2.9	0.78	0.439
Shaxsning ichki olamiga yo‘nalgan	12.4 ± 2.6	11.3 ± 2.8	1.47	0.150
Kinestetik	14.7 ± 3.1	12.9 ± 3.3	2.21	0.032*

*p≤0.05 – statistik ahamiyatga ega farq.

Internetga yuqori tobeligi bo‘lgan sinaluvchilarda lingvistik (t=2,45; p≤0,05), vizual (t=2,68; p≤0,05) va kinestetik (t=2,21; p≤0,05) intellekt darajalarining pastligi kuzatildi.

Natijalarni sifat jihatdan tahlillarini amalga oshiradigan bo‘lsak, lingvistik intellekt pasayishi (t=2,45; p≤0,05) – haddan tashqari internetdan foydalanish analitik fikrlashni susaytiradi. Vizual intellekt pasayishi (t=2,68; p≤0,05) – internetning passiv kontent iste’moli faol vizual muammolarni yechish ko‘nikmalarini kamaytiradi. Kinestetik intellekt pasayishi (t=2,21; p≤0,05) – internetga qaramlik, shaxsning o‘zini anglash darajasiga salbiy ta’sir qiladi va insonning harakatlarni muvofiqlashtirish, tana sezgilari orqali ma’lumotni qabul qilish, jismoniy faoliyatni samarali boshqarish va amaliy ko‘nikmalarni bajarish qobiliyatining sustlashishi yoki kamayishi yuz beradi.

Xulosa. Albatta, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda mutloqa notanish shaxslar bilan tanishishga urinayotgani tashvishli holat. Bu esa jamiyatda ilmsizlik johillikning, axloqsizlikni tomir yoyilishiga hamda yoshlar ongi va madaniyatiga salbiy ta’sir qiladi. Bularning oldini olish uchun, yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ta’lim muassasalarida yoshlarni o‘qishdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun sport to‘garaklari, musiqa to‘garaklari, fan to‘garaklari davomiy tarzda va eng asosiysi yoshlarni qiziqtira oladigan darajada tashkil etish, shu bilan birga yoshlarni iqtidorini topish va ularni tarbiyalash zarur. Buning uchun yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar birgalikda, xususan nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yoshlarni qiziqishi va yosh xususiyatidan kelib chiqib turli xil formlar tashkil etish lozim. Shuningdek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Yuqoridagi xulosalarimizdan kelib chiqgan holda ushbu tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Talabalarda vaqtni boshqarish va internetdan maqsadli foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

Analitik fikrlashni rivojlantiruvchi interaktiv topshiriqlarni ko‘paytirish;

Psixoprofilaktik mashg‘ulotlar orqali intrapersonal refleksiyani kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1028

[2] Dalimova N.M. “Kompyuter o‘yinlariga tobelikning psixologik korreksiyasi” Talim psixologiyasi Zamonaviy ta’lim. T: 2017 3-son 57-61

[3] Войскунский А.Е., Бабаева Ю.Д., Смыслова О.В. Интернет: воздействие на личность // Психология зависимости: Хрестоматия / Сост. К.В. Сельченок. – Мн.2004. – С. 17-19

[4] Нугаев П.И. Влияъние интернета и социальных сетей на современную молодежь / П.И.Нугаев // Вестник науки и образования - 2020. - №12(90). Часть 1. - С. 91

[5] Griffiths M. Problematic online gaming: Issues, debates and controversies. Med. psihol. Ross., 2015, no. 4(33), p. 5. Available at: http://medpsy.ru/mprj/archiv_global/2015_4_33/nomer09.php#russian

[6] Тарасова Е.М. Некоторые психологические особенности студентов поколения Z // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Психологические науки. - 2020. - № 2. - С. 62–70. - DOI: 10.18384/2310-7235-2020-2-62-70.

[7] Жичкина А.Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете / А.Е. Жичкина. - М.: Дашков и Ко, 2004. - 117 с. [1]

[8] Нигматулина Л.А. Результаты исследования влияния компьютерной зависимости на характерологические черты личности // Вестник науки и образования. - 2019. - № 10-2 (64). - С. 95–98.

[9] Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash технологияси: Ped. fan. dokt. (DSc) ... dis. - Toshkent, 2017. - 246 b.